



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 38 140 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113-son farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi.



	2024- yil 1- iyul holatiga, birlik	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik
Toshkent viloyati	34 886	38 140
Oqqo'rg'on tumani	940	954
Ohangaron tumani	877	1 044
Bekobod tumani	1 087	1 087
Bo'stonliq tumani	1 831	2 064
Bo'ka tumani	954	1 055
Quyi Chirchiq tumani	1 073	143
Zangiota tumani	4 219	4 680
Yuqori Chirchiq tumani	1 808	1 899
Qibray tumani	2 982	3 355
Parkent tumani	1 886	2 348
Piskent tumani	843	844
O'rta Chirchiq tumani	1 621	1 669
Chinoz tumani	978	1 023
Yangiyo'l tumani	1 553	1 762
Toshkent tumani	2 540	2 776
Nurafshon shahri	849	868
Olmalik shahri	1 374	1 561
Angren shahri	1 936	2 009
Bekobod shahri	1 217	1 272
Ohangaron shahri	850	863
Chirchiq shahri	2 286	2 557
Yangiyo'l shahri	1 182	1 307

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



2025- yilning yanvar-iyunida 4 109 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 612 ta, boshqa xizmatlarda 549 ta, sanoatda 555 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 428 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2025- yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Toshkent viloyati	3 420	4 109
Oqqo'rg'on tumani	146	98
Ohangaron tumani	90	139
Bekobod tumani	125	154
Bo'stonliq tumani	171	246
Bo'ka tumani	133	136
Quyi Chirchiq tumani	92	123
Zangiota tumani	370	495
Yuqori Chirchiq tumani	163	167
Qibray tumani	233	329
Parkent tumani	265	242
Piskent tumani	79	97
O'rta Chirchiq tumani	166	165
Chinoz tumani	84	96
Yangiyo'l tumani	120	212
Toshkent tumani	222	323
Nurafshon shahri	123	127
Olmalik shahri	128	174
Angren shahri	194	138
Bekobod shahri	130	137
Ohangaron shahri	79	104
Chirchiq shahri	188	259
Yangiyo'l shahri	119	148

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-iyunda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 52,2 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0.4 % punktga ko'paygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 20 562.9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 28,5% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,2 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 13 157,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 24 330,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 59,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 138,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi O'rtachirchiq (94,9 %), Oqqo'rg'on (91,3 %), Toshkent (88,5 %) va Parkent (81,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 18 793,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 95,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod (100,0 %), Ohangaron (99,9 %) va Chirchiq (99,9 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 744,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 85,9,% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oqqo'rg'on(97,7 %), O'tachirchiq (96,2 %), Parkent (95,2 %) va Bekobod (95,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 22 221,0 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 71,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bo'ka (91,3%), Oqqo'rg'on (79,6%), Parkent (76,9%), O'rta Chirchiq(74,2 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l (79,5 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 342,8 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 35,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ka (100,0%), Bekobod (99,4 %), Qibray (91,0 %), Oqqo'rg'on (84,9 %) O'rta Chirchiq (81,0 %) tumanlarida, hamda Yangiyo'l shahrida (97,3 %)ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 2 030,0 mln AQSH dollarini yoki jami importning 57,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushini Bekobod (99,4 %), Oqqo'rg'on (100,0 %), Bo'ka (99,7 %), Zangiota (93,5 %), Parkent (96,6 %), O'rta Chirchiq (89,8 %), Toshkent (92,8 %) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 28,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,4 % punktga kamaygan.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 1,7 % punktni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'paygan.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'zgarish bo'lmagan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida

26,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida esa 32,7 %ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-iyunida nisbatan 6,7 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 58,2 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 58,6 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 15,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyun oylariga kelib, bu ko'rsatkich 8,8 % bo'lgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 27,1 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 46,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 57,2 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 49,7 % yoki 7,5 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 15,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyun oylariga kelib, bu ko'rsatkich 4,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi Qurilish sohasida – 33,9 % ni, savdo sohasida – 32,6 % ni va sanoat sohasida – 31,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – 60,3 % ni sanoatda – 59,0 % ni, va Xizmatlar sohasida – 57 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 13,8 % ni xizmatlar sohasida – 9,9 % ni va sanoat sohasida – 9,3 % ni tashkil etdi.




Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxona va mikrofirmalarda 2025- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha ko'payish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoat sohasida – 41,3 % ni va xizmatlar sohasida – 39,7 % ni, savdo sohasida – 37,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 56,5 % ni, savdo sohasida – 54,8 % ni va xizmatlar sohasida – 51,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlari kamaygan deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish – 16,2 % ni, sanoatda– 10,0 % ni va xizmatlar sohasida – 8,9 % ni tashkil etdi.



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidano'tganhamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari vamanfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lganuyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va
tadbirkorlik statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xudoynazarov
71 203-45-00 (4530)

Manzil:
100198, Toshkent viloyati,
Nurafshon shahar, Toshkent
yo'li ko'chasi, 90-uy